

DIREKTORLAR KENGASHI VA UNING STRATEGIK MAQSADLARI

Alimardonova Malika Uzbekistanovna
Sirdaryo viloyati, Direktorlar kengashi a'zosi
Guliston shahar, 12-umumiy o'rta
ta'lim maktabi direktori

Annotatsiya: maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini lavozimga tayinlash tartibining jarayonlari, shuningdek Direktorlar kengashi tavsiyasi asosida nomzodlarni baholash tizimining joriy etilishi yangi mexanizm sifatida samaradorlik, shaffoflik va adolat tamoyillari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: baholash tizimi, direktorlar kengashi, yuqori salohiyatli kadrlar, ta'limni isloh qilish,

Jamiyat taraqqiyoti zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega shaxslarga bog'liq bo'lgan dunyoda uzluksiz ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadigan maktab ta'limini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha bugungi kunda mamlakatimizda keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini XXI asr talabari darajasiga olib chiqish orqali jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan hamda hayotda o'z o'rnini topa oladigan shaxslarni yetishtirish hozirgi vaqtda dolzarb masalasidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'limni isloh qilish, maktab ta'limining boshqaruv tuzilmalariga yuqori salohiyatli kadrlarni jalb qilish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. O'zgarishlarning asosiy subyekti sifatida bugungi kun direktorlari ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan maktabning barcha sohalarini rivojlantirishi dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida maktab direktorlari o'quv jarayonini samarali tashkil eta oli shi, xodimlar va jamoatchilik bilan hamkorlik hamda muloqot qila olishi, inson resurlaridan samarali foydalana olishi, moliyaviy va raqamli savodxonlikka ega bo'lishi zarurligini anglatadi.

Maktab direktorlarini tanlov asosida belgilash, ularning faoliyat samaradorligini baholash va moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini tatbiq etish – bularning barchasi ta'lim sohasida yuqori salohiyatli, mas'uliyatli va zamonaviy fikrlaydigan rahbarlar korpusini shakllantirishga qaratilgan islohotlardir.

Endilikda, maktab direktorlariga nafaqat o'quv jarayonini tashkil etuvchi shaxs, balki ta'lim muassasasining strategik rivojlanishi va samaradorligini ta'minlovchi menejer sifatida qaralmoqda.

Bugungi zamon talablardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini tayyorlash, tanlash va tayinlash tizimi tubdan isloh qilindi. Bu o'zgarishning zahirida davlatning ta'lim siyosatini sinf xonasigacha olib kira oladigan, kasbiy bilimlari yuqori, zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari va rahbarlik madaniyatiga ega direktorlarni tayyorlash, tanlash va tayinlash masalasi turibdi.

O'zbekistonda maktab direktorlarini tayyorlash, tanlash va tayinlash tizimini takomillashtirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi hamda ular mahalliy tajribalar bilan integratsiya qilinib, 2024-yil 1-yanvardan boshlab yangi tizim joriy etildi.

Sirdaryo viloyatida 7 nafar a'zo hamda kengash kotibidan iborat Direktorlar kengashi tashkil etildi. Ushbu kengash maktab direktorlarini tanlash va tayinlash jarayonini muvofiqlashtirib bormoqda. Hozirgi kunga qadar 73 nafar maktab direktori Direktorlar kengashi tomonidan belgilangan tartib va mezonlar asosida tayinlandi. Kengash tomonidan tayinlangan direktorlar hozirda o'z faoliyatini samarali olib bormoqda va bugungi kungacha ularning faoliyati bilan bog'liq birorta jiddiy muammo kuzatilmadi. Olib borilgan tanlov jarayonlari adolatli, ochiq va shaffof tarzda tashkil etilib, nomzodlarning bilim, tajriba va boshqaruv salohiyati xolisona baholab kelinmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.



Yangi tizim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Makabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va

ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarori asosida amaliyotga tatbiq etildi.

Direktorlar kengashining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

-umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tanlash, saralash asosida munosib nomzodlarni tavsiya etish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari boshqaruvini jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga kiritish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari sifati va samaradorligini ta'minlash, bunda, samarali boshqaruvni amalga oshirish, joylarda amaldagi me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi monitoringini olib borish va tegishli takliflar ishlab chiqish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom ishchanlik va ma'naviy muhitni shakllantirish, pedagoglarning samarali kasbiy faoliyati uchun tegishli sharoitlarni yaratish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining reyting ko'rsatkichlarining yillik o'sish dinamikasini ko'rib chiqish jarayonlariga ko'maklashish;

-ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari, o'qituvchilari va pedagoglarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarda vakolati doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvida sog'lom muhitni tashkil etish maqsadida pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar va o'rganishlar o'tkazish.

Kengashning huquqlari va majburiyatlari:

Kengash o'zining asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

-o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda tegishli ravishda davlat organlari va tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan so'rab olish;

-ish rejalar va dasturlarni, ta'lim faoliyatini muhokama qilishda ishtirok etish, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish.

Kengash ushbu Nizomda belgilangan asosiy vazifalar bajarilishini ta'minlashga majburdir. Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

O'zbekistonda maktab direktorlarini tayyorlash, tanlash va tayinlash tizimi bugungi kunga kelib takomillashtirildi hamda shu vaqtgacha foydalanilgan barcha amaliyotlardan ko'ra eng optimal holatga keltirildi. Ushbu tizimning samaradorligini yanada oshirish uchun jarayonni o'zgarishlar, aniqlanagan muammolar asosida doimiy takomillashtirish, yuzaga kelayotgan katta farqlarni kamaytirish, shuningdek, amaliy tajribani oshirish zarur. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalarining sifatini ta'minlash va direktorlar faoliyatida samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish imkoniyatini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2025.

3. S.Turg'unov "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari". Monografiya. - Toshkent: "Fan", 2016.